**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-avgustdagi 4812-son qarori bilan tasdiqlangan “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarorning tartibga solish ta’sirini baholashdan o‘tkazish bo‘yicha HISOBOT**

## 1-bob. Umumiy ma’lumotlar

| | | |
|---|---|---|
| 1. | Qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatning (bundan buyon matnda normativ-huquqiy hujjat deb yuritiladi) tartibga solish ta’sirini baholashni (bundan buyon matnda TSTB deb yuritiladi) amalga oshiruvchi davlat organ yoki tashkiloti nomi | O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. |
| 2. | Normativ-huquqiy hujjatning turi, nomi va rekvizitlari | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-avgustdagi 4812-son qarori bilan tasdiqlangan “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarori. |
| 3. | Normativ-huquqiy hujjatning loyihasi ishlab chiqilganda tayyorlangan TSTB bo‘yicha hisobot va TSTB to‘g‘risida xulosalar mavjudligi to‘g‘risida ma’lumot | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori ishlab chiqilganda TSTB bo‘yicha hisobot tayyorlanmagan va TSTB to‘g‘risida xulosalar mavjud emas. |
| 4. | Normativ-huquqiy hujjatni TSTBdan o‘tkazish uchun asos | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi PF-8-son Farmonining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan “2024-yilda normativ-huquqiy hujjatlarning tartibga solish ta’sirini baholashdan o‘tkazish rejasi”ning 6-bandi. |
| 5. | Tartibga solish ta’sir ko‘rsatayotgan obyektlar va/yoki subyektlar (manfaatdor tomonlar) | **Tartibga solish vositalari:**<br>Davlat xaridlarida mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga (ishlar, xizmatlarga) preferensiya berish.<br>**Tartibga solish ta’sir ko‘rsatayotgan obyekt:**<br>Xarid qilish imkoniyatini majburiy tartibda o‘rganish – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 21-avgustdagi PQ-4812-son qarorining 4-bandi ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan.<br>**Tartibga solish ta’sir ko‘rsatayotgan subyektlar:**<br>Mahalliy ishlab chiqaruvchi — O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq respublika hududida ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmat ko‘rsatish) faoliyatini amalga oshiruvchi xo‘jalik yurituvchi subyekt. |

## 2-bob. Tartibga solish maqsadlariga erishilganligi va natijadorligi to‘g‘risida ma’lumotlar

| | |
|---|---|
| 6. | Normativ-huquqiy hujjatning amal qilishi natijasida erishilgan maqsadlar va ko‘rsatkichlar: |

| Loyiha ishlab chiqilgan davrda qo‘yilgan maqsadlar | Prognoz qilingan indikativ ko‘rsatkichlar | Qo‘yilgan maqsadlarga erishilganligi to‘g‘risida ma’lumot | Erishilgan indikativ ko‘rsatkichlar | O‘lchov birligi | Hisoblash usullari |
|---|---|---|---|---|---|
| Davlat xaridlari tizimida mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirokini kengaytirib borish hisobiga mahalliy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari va nomenklaturasini kengaytirish | **1-ko‘rsatkich** *(mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtiroki)* prognoz qilinmagan | **1-ko‘rsatkich** *(mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtiroki)* *2022-y – **1 910 ta*** *2023-y – **1 666 ta*** | mavjud emas | foiz | |
| | **2-ko‘rsatkich** *(ishlab chiqarilgan mahalliy sanoat mahsulotlari sotuv hajmlari)* *2022-y – **14 000 mlrd so‘m*** *2023-y – **16 500 mlrd so‘m*** | **2-ko‘rsatkich** *(ishlab chiqarilgan mahalliy sanoat mahsulotlari sotuv hajmlari)* *2022-y – **14 882 mlrd so‘m*** *2023-y – **19 477 mlrd so‘m*** | *2022-y – **106%*** *2023-y – **118%*** | foiz | Erishilgan ko‘rsatkich qiymatini belgilangan prognoz ko‘rsatkich qiymatiga nisbatining foizda ifodalash orqali hisoblanadi. Masalan, 2023-yildagi ko‘rsatkichlari bo‘yicha *(19 477/16 500)*100 = 118%* |
| Import samaradorlik ko‘rsatkichlari | prognoz qilinmagan | *2022-y – **698 mlrd dollar*** *2023-y – **842 mlrd dollar*** | *2022-y – **112%*** *2023-y – **121%*** | foiz | |
| Respublikada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari | *2021-y – **419 169 mlrd so‘m*** *2022-y – **525 600 mlrd so‘m*** *2023-y – **614 595 mlrd so‘m*** | *2021-y – **456 056 mlrd so‘m*** *2022-y – **553 265 mlrd so‘m*** *2023-y – **658 992 mlrd so‘m*** | *2021-y – **108,8%*** *2022-y – **105,3%*** *2023-y – **107,2%*** | foiz | Erishilgan ko‘rsatkich qiymatini belgilangan prognoz ko‘rsatkich qiymatiga nisbatining foizda ifodalash orqali hisoblanadi. |

| 7. | Normativ-huquqiy hujjatdagi tartibga solish usulini qo‘llashda vujudga kelgan ijobiy va salbiy oqibatlar tahlili: |
|---|---|

| **Ijobiy** | **Salbiy** |
|---|---|
| 1. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar davlat xaridlarida ustunliklarga ega bo‘lishi natijasida o‘z faoliyatlarini kengaytirish va rivojlantirish imkoniyati yaratilib, bu o‘z navbatida yangi ish o‘rinlarini yaratishga va ishlab chiqaruvchining rivojlantirishiga olib kelmoqda.<br>2. Davlat buyurtmalari uchun raqobatlashayotgan mahalliy ishlab chiqaruvchilar o‘z mahsulotlarining sifatini oshirishga harakat qilishi natijasida umumiy bozor sifatini yaxshilashga olib kelmoqda. | 1.Buyurtmachilar tomonidan xaridlarni amalga oshirishda birinchi navbatda kooperatsiya portalida ro‘yxatdan o‘tgan mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilish bo‘yicha aniq mexanizm ishlab chiqilmagan.<br>*(ma’lumot uchun: 2024-yil 5 oy davomida mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilish imkoniyatini o‘rganishlar soni jami 98 695 tani tashkil qilgan bo‘lsa, shundan 89 703* |

| | |
|---|---|
| 3. Mahalliy tovarlarga ustunlik berilishi xorijdan import qilinadigan mahsulotlar hajmini optimallashtiradi, bu esa valyutani tejashga olib kelmoqda.<br>4. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar davlat buyurtmalari uchun raqobatlashib, oʻz ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilmoqda va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali umumiy texnologik daraja oshmoqda. | *ta holatda oʻrganilgan mahsulot yoʻqligi boʻyicha ma'lumotnoma olingan)* |
| | |

**3-bob. Normativ-huquqiy hujjatning samaradorligi (foyda va xarajat tahlili) toʻgʻrisida ma'lumotlar**

| 8. | Normativ-huquqiy hujjatning amal qilishi munosabati bilan keltirilgan foyda va (yoki) yuzaga kelgan xarajatlarning tavsifi: | | |
|---|---|---|---|
| **Xarajat va foyda turi** | | **Miqdoriy koʻrsatkichlar** | |
| | | Bir martalik | Davriy |
| **Bevosita xarajatlar** | | | |
| Xarajat turi | 2022-y – 3<br>2023-y - 3 | | 2022-y – 27,2 mln soʻm<br>2023-y – 1,3 mln soʻm<br><br>2022-y – 3 761,9 mln soʻm<br>2023-y – 15 696,1 mln soʻm<br><br>2022-y – 15 151,3 mln soʻm<br>2023-y – 31 618,6 mln soʻm |
| **Bilvosita xarajatlar** | | | |
| Xarajat turi | Mavjud emas | Mavjud emas | Mavjud emas |
| **Ma'muriy sarf-xarajatlar** | | | |
| Xarajat turi | 2022-y – 1<br>2023-y – 1 | | 2022-y – 3 761,9 mln soʻm<br>2023-y -15 696,1 mln soʻm |
| **Bevosita foyda** | | | |
| Foyda turi | 2022-y – 3<br>2023-y – 3 | | 2022-y – 21 571,5 mln soʻm<br>2023-y – 31 406,4 mln soʻm<br><br>2022-y – 1,3 mln soʻm<br>2023-y – 1 434,3 mln soʻm<br><br>2022-y – 15 028,3 mln soʻm<br>2023-y – 78 490,3 mln soʻm |
| **Bilvosita foyda** | | | |
| Foyda turi | Mavjud emas | Mavjud emas | Mavjud emas |
| **Jami foyda va xarajatlar** | | | |
| Foyda | | | 2022-y – 36 601,1 mln soʻm<br>2023 – 111 331,0 mln soʻm |
| Xarajatlar | | | 2022-y – 18 940,4 mln soʻm<br>2023-y – 47 315,9 mln soʻm |

| | | |
|---|---|---|
| Sof joriy qiymat | | 2022-y – 17 660,7 mln so'm<br>2023-y – 61 015,1 mln so'm |

**Ma'lumotlar manbalari: Raqamli transformatsiya markazi MChJ va uning Elektron kooperatsiya portali (https://new.cooperation.uz).*

| 9. | Normativ-huquqiy hujjatning amal qilishi natijasida tartibga solinadigan tadbirkorlik subyektlarining toifasi bo'yicha soni (ulushi) o'zgarishining ko'rsatkichlari | | |
|---|---|---|---|
| **Yillar kesimida** | **Mikrofirmalar** | **Kichik korxonalar** | **Yirik korxonalar** |
| 2022-yil | 64% | 28% | 8% |
| 2023-yil | 63% | 28% | 9% |

**Ma'lumotlar manbalari: Raqamli transformatsiya markazi MChJ va uning Elektron kooperatsiya portali (https://new.cooperation.uz).*

**4-bob. Normativ-huquqiy hujjatning raqobat muhitiga ta'siri**

| 10. Normativ-huquqiy hujjatning raqobat muhitiga ta'sir ko'rsatgan oqibatlar (salbiy/ijobiy) tavsifi: | |
|---|---|
| Tovar ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning (yetkazib beruvchilar) doirasi va sonini cheklashi (cheklamasligi) | xo'jalik yurituvchi subyektlarning (yetkazib beruvchilar) doirasi va sonini cheklamaydi |
| Tovar ishlab chiqaruvchilarning o'zaro raqobatlashish imkoniyatini chegaralashi (chegaralamasligi) | Respublikadagi tovar ishlab chiqaruvchilarning o'zaro raqobatlashish imkoniyatini chegaralamaydi |
| Tovar ishlab chiqaruvchilarning bozor munosabatlarida o'zaro raqobatlashishga qiziqishini pasaytirishi (pasaytirmasligi) | Tovar ishlab chiqaruvchilarning bozor munosabatlarida o'zaro raqobatlashishga qiziqishini pasaytirmaydi |
| Iste'molchilar uchun kerakli axborotni tanlash imkoningning chegaralanishi (chegaralanmasligi) | Iste'molchilar uchun kerakli axborotni tanlash imkoni chegaralanmaydi |

**5-bob. TSTB bo'yicha hisobot muhokama qilinganligi to'g'risida ma'lumot**

| 11. | | |
|---|---|---|
| | | |
| TSTB bo'yicha hisobot muhokamaga qo'yilgan davr | Boshlanishi | Tugashi |
| | | |
| **Kelib tushgan takliflarni ko'rib chiqish natijasi** | | |
| Jami takliflar soni | Qabul qilingan | Rad etilgan |
| | | |

**6-bob. Normativ-huquqiy hujjatni baholashga imkon beradigan boshqa ma'lumotlar**

| 12. Ma'lumotlar |
|---|
| |

**7-bob. Xulosa**

| 13. | TSTBdan o‘tkazish natijalari bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatdagi tartibga solish usullarining amal qilish maqsadga muvofiqligi yoki ularni bekor qilish zarurligi to‘g‘risida xulosa. |
| --- | --- |
| | |

14.Normativ-huquqiy hujjatning loyihasi ishlab chiqilganda tayyorlangan TSTB bo‘yicha hisobot va TSTB to‘g‘risida xulosalar (mavjud bo‘lsa) ushbu hisobotga ilova qilinadi.

*– Ilova mavjud emas.*